

## HAMKORLIKDA O'QITISH PEDAGOGIKASI - TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI

*Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi  
metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti  
kafedrasи katta o'qituvchisi  
Shaniyazova Dilafruz Sabirovna*

Umumiy o'rta ta'lim maktabalarida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog xodimlar bugungi zamon talablariga mos holda, o'z-o'zini mustaqil ravishda ham kasbiy jihatdan rivojlantirishlari uzlusiz kasbiy ta'limninig eng muhim dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida zamonaviy o'qituvchi o'z mas'uliyati va vazifalarini anglagan holda, nafaqat tayyor bilimlarga suyanib qolish, balki ijodiy yondoshish asosida ta'limning sifatini oshirish yo'lidagi o'zining zamonaviy qiyofasini mustaqil yarata olish demakdir. Ana shunday natijaga erishishning eng muhim yo'li esa o'qituvchining o'quvchi bilan hamkorlikda ishlay olish mahoratiga ega bo'la olishidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, eng avvalo, quyidagi bir qator muhim omillarga bog'liq:

- o'quvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, ilg'or pedagogik hamda axborot- kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishi;
- o'quvchilarda zarur bilimlar va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan hamda bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini samarali joriy etilishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi;
- o'qituvchining pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo'lga qo'yilganligi;
- o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni samarali amalgalashish va h.k.

Eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ko'p jihatdan barcha maktablarimizda zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda "oila – mahalla – ta'lim muassasalari" hamkorligi kontseptsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etilishiga bog'liq.

Hamkorlik pedagogikasi kontseptsiyasining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topib, o'z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas'uliyatini sezsa oladigan, vatanparvar bo'lishga qaratilgan.

Hamkorlik pedagogikasining keng ma'nodagi mohiyati esa – bu ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni (balansni) izlash, amaliyotga tezkor joriy etish jarayonidir. SHuningdek, mazkur hamkorlik ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum ma'nodagi standartlar, modellar asosida ta'minlanadi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish – bu ta'limni boshqarish muassasalari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, huquq-tartibot idoralari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini muvofiqlashtirib, ta'lim sifatini amaldagi qonunchilik, davlat ta'lim standartlari va xalqaro standartlar asosida ta'minlashdir.

Hamkorlik pedagogikasi asosida t'lim-tarbiya sifatini boshqarishning asosiy vazifalariga quyidagilar kirdi:

- joriy va strategik boshqaruv samaradorligini tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish;

- ta'limni boshqarish muassasalari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish idoralari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini ustuvor bilish, ularning huquq va manfaatlari buzilgan hollarda himoya qilishning samarali usullaridan foydalanish;

- ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o'rta sidagi mutanosiblikni (balansni) ta'minlash.

SHunday qilib hamkorlik pedagogikasi yo'nalishlarining va hozirgi kundagi amaliyat va tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini, hamkorlik pedagogikasi printsiplari va kontseptual g'oyalarni amaliyatga joriy etish yo'nalishlari va darajasini, uni amaliyatda samarali qo'llash jarayonini baholashning mezonlari va ko'rsatkichlari – umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish imkonini beradi.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining tashkil qilishda: o'qituvchi-sinf, o'qituvchi-kichik guruh, o'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda ishlash), kichik guruh-kichik guruh, kichik guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi.

Hamkorlikda o'qitish- bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

Hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta hususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.

2. O'quvchilar 2-5 a'zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq –atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O'quvchilar ijobjiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo'ladi.

5. O'quvchilar o'z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga, shaxsan mas'uliyatli va javobgardir.

Hamkorlikda o'qitish samaradorligini ta'minlovchi omillar:

- o'quvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvi;
- dars jarayonidagi axborotlarni tahlil va tanqid qilish, o'z xulosalarini asoslash;
- bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash;
- amaliy topshiriqlar bajarish uchun vaqtini ko'proq ajratish;
- hamkorlikda o'qitayotgan o'quvchilarni bir-biriga muvaffaqiyatga erishishlari uchun ko'maklashuvi va boshqalar.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum.

Bolalarda kreativlik qobiliyatining rivojlanishida o'qituvchi xulq-atvorining omili sifatida uning quyidagi fazilatlari katta ta'sir ko'rsatadi:

- ijodiy fikrlash;
- qadr- qimmatining tan olinishi;
- atrof-muhit ta'siriga bolalar sezgirligini rivojlantirishi;
- g'oyalar va obektlarni erkin egallashga yo'naltirilishi;
- ijodiy jarayonlar to'g'risida asoslangan axbortlar bera bilish ko'nikmasini shakllantirilishi;
- tanqidni to'g'ri asoslab bera bilishni rivojlantirishi;
- o'zini hurmat qilishni rag'batlantirishi;
- qanday baho olishdan qo'rqish hissiyotini jilovlashni o'rgatishi.

O'quvchilarni tarbiyalashda oila, maktab, mahalla hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari:

- ta'lim-tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqligi va yuksak mas'uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

Hamkorlik - shunday holatki, obekt va subekt birlashib faoliyat qiladi, o'rtoqlik, o'zaro yordam, jamoatchilik yuzaga keladi.

Hamkorlik pedagogikasining asosi quyidagilardan iborat:

- o'quvchi shaxsini chuqur bilish;
- o'quvchi shaxsiga insoniy yondashish;
- jamoatchilik tarbiyasi;
- o'qituvchining yuqori kasbiy soloziyati;
- maktabga jamoa diqqat e'tiborini qaratish.

Xulosa qilib aytganimizda, hamkorlikda o'qitish bizningcha, quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

-axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;  
-o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;  
-turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvar "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvar "Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 24-sentyabrdagi "Uzlusiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali umumiy orcta ta'lim mакtablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari urchun tajriba-sinov tarzida uzlusiz kasbiy rivojlantirish kurslarini tashkil etish to'g'risida 309-sonli qarori.

4. "Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini boshqarish" A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutining metodik tavsiyasi. T. 2009 y.

5. "Ислоҳотлар ва қарорлар" телеграм расмий канали.

6. Мактаб таълимини ривожлантириш умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур// [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

7. <http://www.ziyonet.uz>. -Ijtimoiy axborot ta'lim portal.